

SUHAYLIY ADABIY MEROSINING MAVZU KO'LAMI**Mamaziyoyeva Ozoda Botirali qizi**

University of Business and Science Til va adabiyot ta'limi kafedrası o'qituvchisi

E-pochta: omamaziyoyeva99@gmail.com

Tel: +998 77 302 15 16

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15636910>

Annotatsiya: ushbu tezisda XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligida o'ziga xos o'rniga ega bo'lgan Dadaxon qori Rustamxo'ja o'g'li Suhayliy adabiy merosining mavzu ko'lami "Yodgorim" to'plami asosida o'rganiladi va xulosalar beriladi.

Kalit so'z: adabiy harakatchilik, jadidchilik, ma'rifatparvarlik adabiyoti, mavzu, g'oya, tasnif, turkum, lirika.

Abstract: This thesis studies the thematic scope of the literary heritage of Dadakhon qori Rustamkhoj oglu Suhayli, who had a unique place in the Namangan literary movement of the early 20th century, based on the collection "Yodgorim", and draws conclusions.

Keywords: literary movement, Jadidism, Enlightenment literature, theme, idea, classification, category, lyrics.

O'zbek milliy uyg'onish adabiyoti shakllanishining ijtimoiy-siyosiy va adabiy estetik omillari hamda XIX asr oxiri va – XX asr boshlari Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayot o'zbek adabiyoti tarixida yangi mavzularning maydonga kelishiga turtki bo'ldi.

XX asr boshlari o'zbek adabiyoti tarixida yangi mavzularning maydonga kelishi yangi poetik turkumlar ijtimoiy hayotdagi voqealarni real, haqqoniy tasvirlaganligi bilan katta ahamiyatga egadir. Davr adabiyotida an'ana bo'lgan ushbu she'riy turkumlarning mavzusini quyidagicha belgilash mumkin:

1) ijtimoiy-siyosiy; 2) yumoristik; 3) lirik; 4) hajviy-tanqidiy.

Ijtimoiy hayotdagi voqealarning ma'rifatparvar va jadid shoirlar tomonidan hozirjavoblik bilan she'riy shaklda o'z fikrlarini bildirdilar. Adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev "Garchi ma'rifatchilik adabiyotining maqsadi, vazifalari, tasvir obekti, mavzular ko'lami, qahramonlari o'zgargan bo'lsada, badiiy tasvir vositalari, ifoda yo'sinlari, tur va janrlari jihatidan mumtoz adabiyotdan juda ham uzoqlashib ketmaganligi, ma'rifatchilik adabiyoti yangi o'zbek adabiyotining ilkinchi bosqichi ekanligi, u ko'p asrlik milliy an'analar shaklidagi o'z ichki qonuniyatlari asosida rivojlanib kelgan mumtoz adabiyot bilan tashqi jahoniy ta'sirlarga berilgan, to'lig'icha ijtimoiy yo'nalish kasb etgan jadid adabiyoti o'rtasida estetik ko'priklar bo'lganini aytib o'tadi. Bizning kuzatishlarimiz natijasida turkumlashni Qo'qon adabiy maktabi ijodkorlari yo'nalishida quyidagicha davom ettirish mumkin:

1. Saylov haqidagi poetik turkum.
2. Veksel mavzusidagi poetik turkum.
3. Sayohatnoma yo'nalishidagi poetik turkum.
4. Qarz mavzusidagi poetik turkum.
5. Mardikorlik mavzusidagi poetik turkum.
6. Arava mavzusidagi poetik turkum.
7. Mamajon makaylik haqidagi poetik turkum.
8. Ko'samen radifli poetik turkum.
9. Kalish va kovush haqidagi poetik turkum.
10. She'riy maktublar bo'yicha poetik turkumlar.
11. Maktab mavzusidagi poetik turkumlar.

Darhaqiqat, Muqimiy, Zavqiy, Furqat asarlaridagi ma’rifat g’oyalari kelgusi bo’g’in avlodlarga jadidchilik yo’nalishi uchun zamin bo’ldi. Ularning fikr-u qarashlari, qalamga olgan adabiy mavzulari jadid adabiyotiga g’oyaviy asos bo’ldi. Shuningdek, ma’rifatparvarlik adabiyotining mumtoz adabiyotdan farqi bor. Buni adabiyotshunos quyidagicha asoslagan: “...mumtoz adabiyot asosan, alohida kishilar, xos tabaqa uchun yaratilib, uning ifoda tarzi ham shunga muvofiq edi. U keng ommaga mo’ljallanmagan, unga qaratilmagan adabiyot edi. Ma’rifatchilik adabiyoti, avval boshdan, ommaga mo’ljallangan bo’lib, uning ifoda yo’sinida soddalik, avomga tushunarlik ustuvorlik qilardi. Ma’rifatchilik xususiyati milliy adabiyotni ifoda tarzidan tortib, mazmun mohiyatiga qadar o’zgartirdi”. Ijtimoiy hayotdagi muammolar ko’payganligi bois adabiyotda ham shunday mavzularda bitilgan asarlar maydonga keldi. Bu davr adabiyotiga nazar tashlasak, Qo’qon adabiy maktabi vakillari ijodida ma’rifatparvarlik g’oyalari yetakchilik qilganini yana boshqa bir adabiyotshunoslar ham ta’kidlaydilar: “Furqat, Muqimiy, Zavqiy kabi shoirlar ma’rifatparvarlik g’oyalarini targ’ib qildilar. Keyinchalik ular safiga Hamza, Ayniy, Avloniy kabi ma’rifatparvarlar kirib keldilar”.

XX asr boshlarida Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari Nodim Namongoniy, Hayrat, Xilvatiy, Ibrat, So’fizoda, Dog’iy kabi Dadaxon qori Suhayliy ham siyosiy murakkab va ziddiyatli bir davrda yashab ijod qilgan. Turkiston hududida bu vaqtdagi adabiyot, san’at va ijtimoiy-siyosiy hayoti bo’yicha yaratilgan tadqiqotlar ham ushbu fikrimiz isboti bo’la oladi. Mustabid tuzum sharoitida yangi davr adabiyotini shakllantirish, yangi usul maktablarini ochish, jadid matbuotini yo’lga qo’yish, har tomonlama shakllangan milliy o’quv tizimini isloh qilish kabi vazifalarga bel bog’lagan ma’rifatparvarlar qatorida Suhayliy ham ijtimoiy-siyosiy jarayonda sodir bo’layotgan har bir yangilikni ustozlaridan ilhomlangan holda qalamga olgan. XX asr boshlarida milliy uyg’onish davri vakillari bo’lgan Behbudiy, Cho’lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Avloniy kabi ma’rifatparvarlar qatorida Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari, xususan, Suhayliy ham xalq ongini millatparvarlik ruhida shakllanishi va rivojlanishi, maorif va madaniyatining yuksalishi uchun Qur’on oyatlaridan o’zining betakror baytlarida mohirona foydalangani holda sermahsul ijod qilgan. Ma’naviyat-ma’rifat suvi bilan sug’orilgan va kamol topgan asarlari orqali yoshlarimizni ona-Vatanga sadoqatli, ilm-ma’rifatli va ijtimoiy hayotda faol bo’lishga chaqirgan.

University of Business and Science nodavlat oliy ta’lim muassasasi filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti Ozodaxon Boltaboyevaning “XX asr boshlarida Namanganda adabiy harakatchilik: namoyandalari, an’analari, yangilanishi” nomli doktorlik dissertatsiyasida ayni shu davrlarda yashab ijod etgan bir qator shoirlar, jumladan, Nodim, Hayrat, Xilvatiy, Ibrat, So’fizoda, Dog’iy hamda Suhayliy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog’liq qimmatli ma’lumotlar bera turib, quyidagicha mavzuviy tasnif etgan edi:

1. ishqiy;
2. axloqiy-ta’limiy;
3. ijtimoiy-siyosiy;
4. hajviy;

XX asr boshlarda Namanganda vujudga kelgan adabiy harakatchilik vakillari orasida Suhayliy o’ziga xos tashbehlari, “ovozi”, misralari bilan alohida e’tiborga va e’tirofqa sazovor bo’lib, uning ijodi haqida fikr bildirganimizda, bizningcha, birgina ta’rif yetarli: oz va soz yozilgan. Shoir qalamida nafaqat davr manzarasi, balki adabiyotimizda paydo bo’lgandan to hozirgacha o’z ohorini saqlab kelayotgan ishq, muhabbat, axloq, tarbiya, ta’lim kabi mavzular

qayta jonlandi, o'zgacha ko'rinish kasb etdi. Shuningdek, shoirning tushunarli va xalqona tili kitobxonlar qalbidan chuqur joy olishiga sabab bo'la oladi, albatta.

Suhayliyning bizgacha yetib kelgan birgina "Yodgorim" she'riy to'plami mavjud bo'lib, undan xilma-xil janrlar o'rin olgan lirik merosini mavzuiy jihatdan quyidagi tasnif asosida o'rganish mumkin:

- 1) ishqiy;
- 2) diniy-ma'rifiy;
- 3) ijtimoiy-siyosiy;
- 4) hajviy.

Suhayliy tarixni ham jiddiy o'rgangan, shu bois uning qiziqishlari samarasi o'laroq "Bo'ston al-orifiyn" asari yuzaga kelgan. Bu asarda Buxoro tarixi, Qo'qon xonligining tashkil topishi, Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi haqidagi qimmatli ma'lumotlar mavjud. Yigitlik chog'ida Qur'on hofizi, zo'r xattot, iste'dodli shoir sifatida tanilgan Suhayliyning avlodlar uchun qoldirgan adabiy merosi yoshlarni ma'rifatga, fidoyilikka chorlaydi, hayot sinovlarini yenga olish uchun sabrli bo'lishga undaydi.

XX asr boshlari Namangan adabiy harakatchiligi namoyandalari Nodim, Hayrat, Xilvatiy, Ibrat, So'fizoda, Dog'iy, Suhayliy kabi shoirlarimiz faoliyati, adabiy merosi o'zbek adabiyoti rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Asosan, aruzning ramal va hazaj bahrlarida ijod qilgan shoirlarimiz asarlarida ishq mavzusi yetakchilik qilishi, ilohiy ishq, tasavvuf g'oyalari kuchliligi sabab, mustaqilligimizgacha ushbu shoirlar ijodini mukammal o'rganish imkoni bo'lmagan. Chunki ular madrasa ilmi bilan cheklanib qolmay, buyuk Sharq olimlari asarlarini mustaqil mutolaa qilishgan, arab, fors tillarini chuqur o'rganishgan. Asarlarida ikki tillilik (zullisonayn) an'anasi davom etgan. Ularning axloqiy qarashlaridagi fidoyilik, millatparvarlik, kurashchanlik kabi xislatlari ijod namunalari ham uyg'unlik kasb etgan.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Суҳайлий. Ёдгорим. – Тошкент: Fikr-Media, 2009. – 192 б.
2. Афоқова Н. Жадид шеърляти поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2005. – 140 б.
3. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: O'zbekiston, 2008. – 536 б.
4. Қосимов Б., Юсупов Ш., Долимов У., Ризаев Ш., Аҳмедов С. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 464 б.
5. Болтабоева О. XX аср бошларида наманганда адабий ҳаракатчилик: намояндалари, анъаналари, янгиланиши: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация. – Тошкент, 2019. – Б. 148.